

MAYDA MOTORIKA RIVOJI VA YOZISH TEXNIKASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Termiz davlat pedagogika instituti

Tayanch doktoranti

Alimardanova Sitora Ikrom qizi

SitoraIkromovnaA@gmail.com

Anotatsiya: mazkur maqolada mayda motorika rivojlanishi va yozish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Mayda motorika asosan, qo'l, barmoq va bilak mushaklarining nozik harakatlari qobiliyati yozish jarayonining samarali bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Maqolada bolalar va maktab yoshidagi o'quvchilar uchun mayda motorikani rivojlantirish mashqlari, yozish texnikasini o'rgatish usullari va ularning o'zaro ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mayda motorika, yozish texnikasi, qo'l va barmoq harakatlari, bolalar rivoji.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь между развитием мелкой моторики и техникой письма. Мелкая моторика, особенно тонкие движения мышц рук, пальцев и предплечий, играет важную роль в эффективности процесса письма. В статье рассматриваются упражнения для развития мелкой моторики, методы обучения технике письма и их взаимодействие для детей и школьников.

Ключевые слова: мелкая моторика, техника письма, движения рук и пальцев, развитие детей.

Abstract: This article analyzes the relationship between the development of fine motor skills and writing technique. Fine motor skills, especially the fine motor skills of the hand, fingers, and forearm muscles, play an important role in the effectiveness of the writing process. The article examines exercises for developing fine motor skills for children and school-age students, methods of teaching writing techniques, and their interaction.

Keywords: fine motor skills, writing technique, hand and finger movements, child development.

Kirish. Yozish insonning kundalik hayotida va ta'lim jarayonida asosiy kommunikatsiya vositasi bo'lib, u nafaqat bilimlarni ifodalash, balki kognitiv va motorik ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Yozish texnikasi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun kichik motorika, ya'ni qo'l va barmoqlarning nozik harakat qobiliyati, muvozanat va koordinatsiya muhim hisoblanadi. Mayda motorika rivoji, ayniqsa

bolalik davrida, qo‘l mushaklarining mustahkamlanishi, barmoq harakatlarining aniqligi va tezligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, yozish texnikasi o‘rgatish jarayonida motorik mashqlar, qalam tutish va harflarni chizish mashqlari orqali yozuv sifati va tezligi oshadi. Ushbu maqola mayda motorika rivoji va yozish texnikasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga, bolalar rivojida samarali mashq va metodlarni aniqlashga qaratilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozish texnikasini shakllantirish jarayoni ko‘p jihatdan ularning jismoniy va psixologik rivojlanishiga bog‘liq. Ayniqsa, qo‘l barmoqlari va kaft mushaklarining harakati -ya‘ni mayda motorika - bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Mayda motorika rivojlangan o‘quvchi yozuv jarayonini osonroq o‘zlashtiradi, chiroyli va aniq yozadi. Mayda motorika deganda barmoqlar, qo‘l va bilak mushaklarining nozik harakatlari tushuniladi. Ushbu harakatlar bolaning yozish, chizish, kesish, tugma qadash kabi kundalik faoliyatlarida namoyon bo‘ladi. Demak, yozuv texnikasi aynan shu nozik harakatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinfga kelgan ayrim o‘quvchilarda mayda motorika yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lishi mumkin. Bu esa yozuvda qiyinchiliklarga olib keladi: harflarni notekis yozish, tez charchash, yozuv tezligining pastligi kabi muammolar yuzaga keladi. Shuning uchun o‘qituvchi dars jarayonida nafaqat yozishni o‘rgatishi, balki mayda motorikani rivojlantiruvchi mashqlarga ham e‘tibor qaratishi lozim. Mayda motorikani rivojlantirish uchun turli amaliy mashg‘ulotlar samarali hisoblanadi. Masalan, plastilin bilan ishlash, qog‘ozni kesish va buklash, boncuk (marjon) terish, chizmachilik mashqlari, naqsh chizish, rang berish kabi faoliyatlar o‘quvchilarning qo‘l mushaklarini mustahkamlaydi. Bunday mashg‘ulotlar nafaqat foydali, balki bolalar uchun qiziqarli hamdir. Shuningdek, maxsus grafomotor mashqlar – chiziqlar, aylana va shakllarni chizish - yozuvga tayyorgarlik vazifasini bajaradi. Bu mashqlar orqali o‘quvchilar ruchkani to‘g‘ri ushlashni, bosimni me‘yorlashni va harakatlarni muvofiqlashtirishni o‘rganadi. O‘qituvchi bu jarayonda individual yondashuvni qo‘llashi zarur. Har bir bolaning rivojlanish darajasi turlicha bo‘lganligi sababli, ayrim o‘quvchilarga qo‘shimcha mashqlar berish, ularni sabr bilan qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlik qilib, uy sharoitida ham mayda motorikani rivojlantirish tavsiya etiladi.

Mayda motorika rivoji yozish texnikasining asosi hisoblanadi. Qo‘l barmoqlari harakati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, o‘quvchining yozuvi shunchalik chiroyli, tez va aniq bo‘ladi. Shuning uchun boshlang‘ich ta‘limda mayda motorikani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish zarur. Quyida asosiy jihatlarida e‘tibor qaratish lozim:

To‘g‘ri tutish	Qalam yoki ruchkani uch barmoq bilan ushlash, bosh barmoq, ko‘rsatkich barmoq va o‘rta barmoq.
----------------	--

Harakat nazorat qilish	Yozish faqat barmoq bilan emas, bilak va tirsak harakatlari bilan amalga oshiriladi.
Harflarni shakllantirish	harflarni chizishda o‘q chiziqlarga amal qilish: ustki, pastki va o‘rta chiziqlarni ko‘rish.
Harflarni teng va mos kattalikda yozish	Estetik yozuvning asosiy qoidasi
Reja va ritm	Harflar oralig‘i bir xil bo‘lishi kerak. Yozish tezligi asta-sekin oshiriladi: boshlanishda sekin va aniqlik bilan, keyin tezlik bilan

Mayda motorika rivoji va yozma nutq o‘rtasidagi bog‘liqlik pedagogika va psixologiyada muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yozma nutq – bu insonning fikrini yozuv orqali ifodalash jarayoni bo‘lib, u nafaqat til bilimini, balki murakkab psixomotor ko‘nikmalarni ham talab etadi. Shu jihatdan qaraganda, yozma nutqning shakllanishida mayda motorikaning o‘rni beqiyosdir. Yozma nutqni egallash jarayonida bola bir vaqtning o‘zida bir necha vazifani bajaradi: tovushlarni eslab qoladi, ularni harflarga aylantiradi, so‘z va gaplarni tuzadi hamda ularni qog‘ozga tushiradi. Bu jarayon qo‘l barmoqlarining aniq va muvofiqlashtirilgan harakatini talab qiladi. Agar bolada mayda motorika yetarli rivojlanmagan bo‘lsa, u yozma nutqni shakllantirishda qiyinchiliklarga duch keladi, masalan, harflarni chalkashtiradi, so‘zlarni noto‘g‘ri yozadi yoki yozishda sekinlik kuzatiladi. Mayda motorika va yozma nutq o‘rtasidagi bog‘liqlik ayniqsa boshlang‘ich ta‘lim bosqichida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu davrda bolalar yozishni endigina o‘rganayotgan bo‘lib, ularning qo‘l mushaklari hali to‘liq mustahkamlanmagan bo‘ladi. Shu sababli yozma nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda, qo‘l harakatlarini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, yozma nutqni rivojlantirishda ijodiy faoliyatlarning ham o‘rni katta. Rasm asosida hikoya tuzish, kichik matnlar yozish, diktant va ko‘chirma yozuv mashqlari bolalarning nafaqat yozish texnikasini, balki mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu esa yozma nutqning mazmunan boy va mantiqan izchil bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mayda motorika rivoji bolalarning yozish texnikasini shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Qo‘l barmoqlari mushaklarining yetarli darajada rivojlanmaganligi yozuv jarayonida qiyinchiliklar, harflarni noto‘g‘ri yozish va tez charchash kabi muammolarga olib keladi. Aksincha, mayda motorika yaxshi rivojlangan bolalarda yozish jarayoni ancha oson, aniq va tez kechadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rasm chizish, plastilin bilan ishlash, kesish,

yopishtirish kabi faoliyatlar bolalarda qo‘l harakatlarini muvofiqlashtirishni rivojlantirib, yozuv ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida mayda motorikani rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarga alohida e’tibor qaratish zarur. Umuman olganda, yozish texnikasining samarali rivoji bevosita mayda motorika bilan bog‘liq bo‘lib, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un holda shakllanishi ta’lim samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘ulomov A., Yo‘ldoshev J. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
2. Safarova R. Boshlang‘ich sinflarda yozma nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Qodirov B.R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
4. G‘ulomov A., Yo‘ldoshev J. Yozuv malakalarini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
5. Shomurodzoda, H., & Alimardanova, S. (2026). INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES IN DEVELOPING WRITTEN SPEECH IN THE PRIMARY CLASS. В АCADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (Т. 5, Выпуск 4, сс. 8–10). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18438770>
6. Alimardanova, S. (2026). YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR . Наука и инновация, 4(6), 102–104. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/73164>